
15-Mavzu. Nutq nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun psixokorreksion ishlar

Reja:

1. Psixokorreksiya jarayonini tashki etish.
2. Nutq nuqsoniga ega bolalar bilish jarayonlarini psixokorreksiyasi usullari.
3. Nutq nuqsoniga ega bolalar ruhiy holatlarini psixokorreksiya qilish.



Tayanch iboralar: Nutq nuqsoni, psixokorreksiya, psixologik yondashuv, fonetik-fonematik rivojlanish, nutqiy buzilish, kompensator imkoniyatlar, emotsional holat, kommunikativ qobiliyat.

L.S. Viygotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi	**A.R. Luriya – funktsional tizimlar nazariyasi**	**B.D. Elkonin – bolalar psixik rivojlanishining bosqichlari nazariyasi**	**V.V. Lebedinskiy – psixik rivojlanish buzilishlari tipologiyasi**	**R.S. Nemov – psixologik yordam va maslahat nazariyasi**

Bola rivojlanishi — ijtimoiy faoliyat va muloqot orqali yuzaga keladi.	Nutq — miya faoliyatining murakkab funktsional tizimi hisoblanadi.	Bola rivojlanishida o‘yin, o‘qish, mehnat faoliyati turlari asosiy rol o‘ynaydi.	Bolalarda rivojlanishdagi buzilishlar psixik tizimning bir necha darajasini o‘z ichiga oladi: emotsional, aqliy, nutqiy, motor buzilishlar.	Bola shaxsiyati ijtimoiy muhit va individual tajribalar orqali shakllanadi.

Psixologik yordam faqat mashg‘ulotlar bilan cheklanmasligi, balki bolaning emotsional holatini tahlil qilish va ota-onalar bilan ishlashni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Nutq nuqsoniga ega bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlarning maqsad va vazifalari.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda yuzaga keladigan psixik rivojlanishdagi og‘ishlar nafaqat ularning muloqot qilish salohiyatini cheklaydi, balki shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, o‘qishga tayyorlik kabi jarayonlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois psixokorreksion ishlarning **asosiy maqsadi**:

- Bola nutqining to‘g‘ri shakllanishiga yordam berish;
- Nutqiy buzilish bilan bog‘liq emotsional va psixologik muammolarni kamaytirish;
- Bolaning shaxsiy imkoniyatlarini ochish va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash;
- Ijtimoiylashuv va maktabga tayyorlik darajasini oshirish.

Psixokorreksion ishlarning asosiy vazifalari:

1) Psixologik va logopedik diagnostika: boladagi nutqiy nuqsonlarning turini, darajasini, unga ta’sir qilayotgan psixologik omillarni aniqlash.

2) Individual rivojlanish dasturini tuzish: bolaning yoshi, individual ehtiyojlari va rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda.

3) Ijobiy emotsional muhit yaratish: bolaning psixologik xavfsizligini ta’minlash.

4) Nutq faoliyatiga yordam beruvchi psixologik mashg‘ulotlarni tashkil etish: o‘yinlar, mashqlar, dramatizatsiyalar orqali.

5) Ota-onalar bilan hamkorlik: ularni bola muammolari va tuzatish ishlariga jalb qilish.

Psixokorreksiyaga ta’sir etuvchi **ob’ektiv** va **sub’ektiv** omillar.

Ob’ektiv omillar:

Bu omillar bolaning tashqi va ichki muhitidagi real sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular psixik va nutqiy rivojlanishga bevosita yoki bilvosita ta’sir qiladi:

- Biologik omillar: miya faoliyati buzilishi, neyropsixik rivojlanishdagi kechikish, perinatal asoratlar (asfiksiya, travmalar), irsiy kasalliklar.
- Nevrologik omillar: markaziy asab tizimi buzilishlari, epilepsiya, autistik spektr buzilishlari.
- Ijtimoiy omillar: bolaning oila muhitidagi muloqot tanqisligi, ijtimoiy chetlanish, tarbiya yetishmovchiligi, bolaga befarqlik, o‘ta avtoritar yoki betartib oilaviy tarbiya.

Sub’ektiv omillar:

- Bular bolaning ichki psixik holati, shaxsiy tajribasi va shaxsiy fazilatlari bilan bog‘liq:
- Emotsional holat: qo‘rquv, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik, o‘zini yetarli baholay olmaslik.

- Motivatsiya darajasi: o‘rganishga va muloqotga qiziqish, harakat qilish istagi.
- Individuallik: temperament, xarakter xususiyatlari, o‘zini ifoda etish uslublari.
- O‘ziga nisbatan munosabat: bolaning ijtimoiy baholashga bo‘lgan sezgirligi, muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan reaktsiyasi.

Psixokorreksiya metodlari **kompleks** va **integrativ yondashuv** asosida tanlanadi. Bunda bolaning nutqiy, emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish jihatlari birgalikda inobatga olinadi.

Nutq nuqsonlari bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga keng qamrovli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu muammo maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yoshidagi bolalarda ijtimoiylashuv, o‘z fikrini bayon qilish, o‘qituvchining topshiriqlarini tushunish kabi jihatlarda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli, psixokorreksion ishlar jarayoni nafaqat logopedik mashg‘ulotlarni, balki keng qamrovli psixologik yordamni ham o‘z ichiga oladi.

Psixokorreksiya — bu bola psixikasida kuzatilayotgan rivojlanishdagi buzilishlar yoki og‘ishlarni bartaraf etishga qaratilgan psixologik ta’sirlar majmuasidir. Psixologik korreksiya orqali bola o‘z muammolarini anglaydi, ularni yengib o‘tishga harakat qiladi va bu orqali ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi oshadi.

Psixokorreksiya jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Diagnostika** – bolaning nutq, emotsional va bilish sohalaridagi rivojlanish darajasini aniqlash.
2. **Rejalashtirish** – aniqlangan muammolarga mos ravishda individual korreksion dastur ishlab chiqish.
3. **Amaliy korrektsion mashg‘ulotlar** – psixologik va logopedik mashg‘ulotlar majmuasi orqali rivojlantirish.

4. **Monitoring va baholash** – o‘zgarishlarni muntazam kuzatib borish va natijalarni tahlil qilish.

Bunda muhim jihatlardan biri bu — psixolog, logoped, pedagog va ota-onaning uzviy hamkorligidir. Har bir mutaxassis o‘z yo‘nalishi bo‘yicha bolaning rivojlanishiga hissa qo‘shadi, ota-onalar esa uydagi shart-sharoitlarni muvofiqlashtiradi.

Bilish jarayonlari (kognitiv jarayonlar) bolaning tashqi muhitni anglash, o‘z-o‘zini ifodalash, muloqotga kirishish va mustaqil qaror qabul qilish kabi faoliyatlarning asosidir. Nutq nuqsoniga ega bolalarda aynan ushbu kognitiv jarayonlar sustlashgan bo‘ladi yoki noto‘g‘ri shakllangan bo‘ladi.

Psixokorreksion ishlarning bilish sohasiga qaratilgan asosiy vazifalari:

- Diqqatni barqarorlashtirish va kuchaytirish.
- Xotirani kengaytirish, assotsiativ aloqalarni mustahkamlash.
- Mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Nutq va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytirish.

Foydalaniladigan usullar:

1. **Diqqatni rivojlantiruvchi mashqlar**: rasmda kamchilikni topish, belgilarni farqlash, "Nimani eshitding?" yoki "Kimni ko‘rding?" kabi topshiriqlar.

2. **Xotira ustida ishlash:** hikoyani eslab qolish, juft rasm topish, predmetlarning joylashuvini eslab qolish.

3. **Mantiqiy tafakkur:** “Nimani olib tashlasa, mazmun o‘zgarmaydi?”, “Qaysi predmet ortiqcha?” kabi topshiriqlar.

4. Nutqni qo‘llab-quvvatlovchi **fikrlash mashqlari**: surat asosida hikoya tuzish, kartochkalarni tartiblash asosida voqea yaratish.

Ushbu mashqlar bolalarning nafaqat bilish qobiliyatlarini, balki nutq faoliyatini ham faollashtiradi. Bolaning o‘qish va yozishga tayyorgarlik darajasi ham oshadi.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda ko‘pincha quyidagi psixologik muammolar kuzatiladi:

- O‘ziga ishonchsizlik.
- Ijtimoiy chekinish va izolyatsiya.
- O‘z tengdoshlaridan orqada qolish hissi.
- Agressivlik yoki passivlik.

Bunday holatlar bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli emotsional-irodaviy sohaga oid psixokorreksiya juda zarur hisoblanadi.

Emotsional psixokorreksiyaning samarali usullari quyidagilardan iborat:

- Art-terapiya: rasm chizish orqali ichki holatni tashqariga chiqarish. Masalan, “Bugungi kayfiyatingni chiz” yoki “Xavotir bergan voqeani suratda ifoda et”, rang tanlash orqali bola emotsional fonini anglash va muvozanatlashtirish.
- Psixodrama va rolli o‘yinlar: "do‘stlik", "ota-ona", "o‘qituvchi-o‘quvchi" rollarini bajarish orqali ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish.
- Relaksatsiya texnikalari: vizualizatsiya, nafas olish mashqlari, tovushli muhit bilan tinchlantirish texnikalari.
- Qum terapiyasi va loy bilan ishlash: hissiyotlarni ifodalashda qo‘shimcha vositalar sifatida.

Shuningdek, bolaning o‘zini anglashini qo‘llab-quvvatlash maqsadida quyidagilarga e’tibor qaratish kerak:

- Muvaffaqiyatga erishganini tan olish.
- Kichik yutuqlar uchun rag‘batlantirish.

"Sen eplay olasan", "Men senga ishonaman" kabi qo‘llab-quvvatlovchi iboralar.

Nutq nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar tizimli, kompleks va ko‘p bosqichli yondashuvni talab qiladi. Har bir bola individual rivojlanish yo‘liga ega bo‘lganligi sababli, korreksion yondashuvlar ham shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Psixologik, pedagogik va logopedik yondashuvlar birgalikda olib borilganda natijalar samarali bo‘ladi. Bunday yondashuv bolaning faqatgina nutqini emas, balki psixik barqarorligini, ijtimoiylashuvini va umumiy rivojlanishini qo‘llab quvvatlaydi.

Psixokorreksion terapiyalar:

1. O‘yin terapiyasi: Maktabgacha yoshdagi bolalarda eng samarali usul.

Bolaning ichki dunyosini anglash, o‘ziga bo‘lgan ishonch, muloqotga kirishish istagi va nutq faoliyati rivojlanadi.

2. Art-terapiya: Ranglar bilan ishlash orqali emotsional holatni yahshilash va tasavvur jarayonlari kengaytirish. So‘z yordamida ifoda etilishi qiyin bo‘lgan his-tuyg‘ularni yaratish orqali tashqariga chiqarishga imkon beradi.

3. Psixodrama: Muammoli vaziyatlarni rollar orqali ijro etish, muammoni tahlil qilish va qayta ishlash hamda xulosa qilish ko‘nikmasi shakllanadi. Bu terapiya nutqiy nuqsonga ega bolalarda xarakter xususiyati inobatga olgan xolda qo‘llaniladi. Bu usul orqali bolada o‘zini va boshqalarni tushunish qobiliyati rivojlanadi.

4. Kognitiv-rivojlanish terapiyasi: Og‘ir nutqiy nuqsonlarda, ayniqsa duduqlanuvchi bolalarda uchraydigan psixik holatlardagi qo‘rquv, kuchli hayajon, ijtimoiylashuvdagi passivlik, o‘ziga bo‘lgan ishonchning kamligi, o‘z-o‘zini baholash muammolarini yengishda samarali usuldir.

5. Sensor-integrativ terapiya: Bola atrof olamni tushunishi, anglashida sezgilari orqali vestibulyar tizim, ko‘rish va eshitish analizatorlari faoliyatini rivojlantirish, uyg‘unlashtirish usulidir. Nutqiy nuqsonlarni hamda individual shaxs

xususiyatlaridagi harakatlari bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

6. Logopedik psixokorreksiya: Nutq buzilishining psixologik sabablarini hisobga olib, logopedik mashg‘ulotlar davomida emotsional barqarorlikni saqlagan holda to‘g‘ri talaffuz, lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Psixologik yordam faqat mashg‘ulotlar bilan cheklanmasligi, balki bolaning emotsional holatini tahlil qilish va ota-onalar bilan ishlashni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Nutq nuqsonlari bilan ishlashda zamonaviy psixokorreksion metodlar:

1. **Multimodal yondashuv:** bu yondashuv bolani ko‘rish, eshitish, harakat, teginish orqali bir vaqtning o‘zida ta’sirlantirishga asoslanadi. Masalan: gapirishni o‘rganishda eshitish + lab harakati + taktil sezgi birgalikda ishlatiladi. Ayniqsa, autizm, FFNR (fonetik-fonematik rivojlanish) holatlarida samarali.

2. **“Tomatis” metodi** (audio-psixofonik stimulyatsiya): Frantsuz otorinolaringologi A.Tomatis tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bolaga o‘z ovozini modifikatsiya qilingan holda eshittirish orqali nutq markazlarini neyro-sensor faollashtirish orqali psixik jarayonlar diqqat, eshitish idroki, talaffuz va emotsional holat yaxshilanadi.

3. **Neuro-qaytarish aloqali mashqlar:** bolaning miya faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib, unga mos signal orqali o‘zini boshqarishni o‘rgatish. Diqqat yetishmovchiligi, logonevroz, nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda qo‘llaniladi.

4. **Qum terapiyasi:** Bola qum ustida turli obrazlar yaratish orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Hissiy- irodaviy holat, ijtimoiy muloqot va nutqiy faoliyat rivojlanadi. Ko‘pincha psixologik holatdagi kamchiliklar, nutqdan voz kechgan (mutizm) bolalar uchun samarali usullardan biridir. Bolada o‘z mustaqil nutq faoliyatini nazorat qilish, ovoz chiqarish, so‘z boyligini oshirishga yordam beradi. Bola bilan emotsional aloqani yaxshilab, uning tashabbusiga javob berish orqali rivojlantirish samaralidir. Rivojlanishida kechikish bo‘lgan bolalar, ayniqsa autizm

spektr buzilishi va nutqiy nuqsonlarda qo‘llaniladigan zamonaviy psixoterapiyalarni qo‘llash orqali natijaga erishish mumkin.

Kognitiv rivojlanish va nutqiy buzilishlarni maxsus vizual rejalashtirish (rasmlar, belgilar) topshiriq sifatida beriladi. Har bir to‘g‘ri bajarilgan harakatga ijobiy kuchaytiruvchi (rag‘bat) berish orqali nutqni mustahkamlash o‘rinlidir. Bolaga to‘g‘ri talaffuz, so‘z tanlash, savollarga javob berish o‘rgatiladi. Ijtimoiy nutq ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun virtual muhitda dialog, rolli o‘yinlar yaratish hamda faol ishtirok orqali natijaga erishish mumkin. Fonematik eshitish, farqlash va o‘zaro nutqiy munosabatda ishtirok etish uchun motivatsiyani oshirish zarur.

Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etishda eng avvalo erta va to‘g‘ri tashxis, tizimli kompleks yondoshuv asosidagi korreksion-logopedik mashg‘ulotlar va individual xususiyatlar bilan ishlash asosiy vazifalar hisoblanadi. To‘g‘ri yo‘naltirilgan psixokorreksion ishlar bolalarning nutqiy rivojlanishidagi kamchiliklarni bartaraf etib, ularning muloqot qobiliyatini yaxshilashga hamda umumta’lim dasturlarini o‘zlashtirishiga va jamiyatga moslashishiga, o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olishiga yordam beradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

- Ayupova M. Logopediya; T-2007.
- Денисова О.А.Детская психология. М.,2008.
- Калягин Б.А. Логопсихология. М.,2005.
- Трошин О.В., Жулина Е.В. Логопсихология. М.,2005.
- Mo‘minova L.R. , Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. T.,2013.
- Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma.T.,2013.
- Do‘stmuxamedova Sh.,Nishanova Z., Jalilova S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T.,2013.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Nutq nuqsoniga ega bolalarni jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlantirishda psixokorreksion terapiyalarni o‘rni nimalardan iborat?

2. Nutqiy nuqsonlarni bartaraf etish uchun qaysi psixokorreksiya terapiyalarni samarali qo‘llash mumkin?

3. Nutq nuqsonlari bilan ishlashda va ularni rivojlantirishda psixokorreksiyani qo‘llashda nimalarga ahamiyat beriladi?

3. Bolalarni psixologik tekshirish va rivojlantirish qaysi usullar yordamida amalga oshadi?

4. Qaysi nutq nuqsonida umumiy rivojlantirish ishlari, yani psixokorreksiya ustida alohida ishlash talab etiladi?

5. Duduqlanish nutq nuqsonlarida qaysi zamonaviy psixokorreksiya ish usullari yaxshi samara beradi?